

QASDDAN ODAM O‘LDIRISH JINOYATINING PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

Allayorova Zarnigor Ismoil qizi
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qasddan odam o‘ldirish jinoyati haqida tushuncha uning obyekti, ushbu jinoyat uchun belgilangan javobgarlik va profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha chora tadbirlar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *qasd, jinoyat,, odam o‘ldirish, obyekt, javobgarlik, qonun, ijtimoiy xavflilik.*

Kirish: Bizga ma‘lumki insonning yashash huquqi nafaqat xalqaro miqyosadi normative hujjatlar balki o‘zimizning ichki qonunlarimiz bilan ham kafolatlanadi. Shu o‘rinda aytish joizki bugungi kunda ushbu turdagi jinoyatlarni tahlil qilish ularning profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha chora tadbirlarini ishlab chiqish dolzarbligi ortib bormoqda.

Insonga berilgan ulug‘ ne‘matlardan biri uning hayoti bo‘lib, uning daxlsizligi to‘g‘risida g‘amhorlik qilish va uni muhofaza qilish davlatning barcha huquqiy institutlari, sud-tergov organlarining diqqat markazidadir. Shu bilan bir qatorda jinoyat qonuning vazifasi sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida qasddan odam o‘ldirish jinoyati alohida kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi maxsus qismining birinchi bo‘limi “shaxsga qarshi jinoyatlar”, aynan birinchi bobi “Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar” ning mustahkamlanishi, yana bir bor insonning yashash huquqi kafolatganligi uning barcha qadriyatlardan ustun ekanligidan dalolat beradi. Qasddan odam o‘ldirish jinoyatida jinoyat sodir etish usulining ahamiyati va uning o‘ziga xos ijtimoiy xavfliligi eng ulug‘ ne‘mat bo‘lmish hayotdan insonni mahrum etadi va shu bilan jamiyatga juda ham katta ziyon yetkazadi.

Ushbu jinoyatni tahlil qilar ekanmiz O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi Maxsus qismida belgilangan ushbu jinoyat tushunchasi va jinoyat uchun belgilangan javobgarlikka ha e‘tibor qaratishimiz lozim.

Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining Qasddan odam o‘ldirish —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, ya‘ni:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;
- b) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni;
- v) aybdorga ayon bo‘lgan ojiz ahvoldagi shaxsni;
- g) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini;
- d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo‘lgan usulda;

- e) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- j) o‘ta shafqatsizlik bilan;
- z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda;
- i) tamagirlik niyatida;
- k) milliy yoki irqiy adovat zahirida;
- l) bezorilik oqibatida;
- m) diniy taassublar zahirida;
- n) inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;
- o) boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida;
- p) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoxud o‘sha guruh manfaatlarini ko‘zlagan holda;
- r) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- s) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan qasddan odam o‘ldirilishi —

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki qasddan odam o‘ldirish jinoyati shaxsning hayotiga va jamoat xavfsizligida, jamiyat va davlat manfaatlariga ziddiy xavf tu‘g‘diruvchi jinoyat turi hisoblanadi.

Qasddan odam o‘ldirish jinoyatining profilaktikasini tashkil etishda avvalo ushbu jinoyatning eng ko‘p sodir etish usullarini vositalarini o‘rganishga e‘tibor qaratish va ushbu jinoyatlardan jabrlangan shaxslar toifalarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Qasddan odam o‘ldirish jinoyati profilaktikasi jamiyatda inson hayoti va sog‘lig‘i va xavfsizligini himoya qilish qonun buzilishining oldini olishga qaratilgan tizimli chora tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etishdan iborat hisoblanadi.

Quyida bir qator chora-tadbirlarni taklif sifatida keltirishimiz mumkin:

1. Qonuniy va huquqiy asoslarni mustahkamlash

Qonunlarni takomillashtirish: qasddan odam o‘ldirish jinoyatini oldini olishda qonunlarni qat‘iylashtirish va ularni samarali qo‘llash muhimdir. O‘zgarishlar va yangiliklar shuningdek xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish: qonunbuzarliklarni aniqlash va jazolash tizimini samarali ishlashini ta‘minlash. Bunga huquqni muhofaza qilish organlarining professionalligi va o‘z vaqtida aralashuvi muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish.

2. Ijtimoiy va iqtisodiy omillarni kamaytirish:

• Kambag‘allik va ishsizlikni kamaytirish:

Ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik va kambag‘allik jinoyatchilikni kuchaytiradi. Iqtisodiy ahvolni yaxshilash va aholiga turli kasb-hunar o‘rgatish, mehnat bozorida imkoniyatlarni kengaytirish orqali jinoyatlarni kamaytirish mumkin.

• **Ta'lim va ma'rifatni oshirish:** Yoshlarni huquqiy bilimlar, axloqiy qadriyatlar, murosaga erishish usullari, o'zini tutish san'ati kabi masalalarda tarbiyalash. Bu, odatda, huquqni hurmat qilish va qonunbuzarlikni oldini olishda samarali vositadir.

3. Oila va jamiyatda tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish

• **Oilada huquqiy va axloqiy tarbiya:** Oilalar jamiyatning asosiy bo'g'inidir, shuning uchun ota-onalar o'z farzandlariga hurmat, sevgini, jismoniy va psixologik zo'ravonlikka qarshi turishning ahamiyatini tushuntirishlari kerak. O'zaro hurmat, mehnatsevarlik va ijobiy munosabatlar rivojlantirilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qasddan odam o'ldirish jinoyatlari va ularning profilaktiksi inson huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bunday jinoyatlar jismoniy, ruhiy, yoki mulkiy zarar yetkazish, shuningdek shaxsning ozodligi va sha'niga tahdid soluvchi harakatlarni o'z ichiga oladi. Qasddan odam o'ldirish jinoyati tasnifi jinoyatchilikni tizimli ravishda tshunishga va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali chora tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, qonuniy chora-tadbirlarni kuchaytirish va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ishlanmalarni yo'naltirishda muhimdir. Umuman olganda qasddan odam o'ldirish jinoyatlarning o'zaro bog'liq sabablari va oqibatlarini tshunish, ularni samarali tahlil qilish va ularga qarshi kurashish uchun zarurdir. Bu shuningdek jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi."O'ZBEKISTON" Toshkent-2023.13-bet
- 2.Jinoyat kodeksi.<https://www.lex.uz/acts/1114533>.